


## BUGUNGI KUNDA O'ZBEKISTON EKOLOGIYASI VA ARTOF-MUHIT MUAMMOLARI



*Rajabova Sabina Azizjon qiz  
UzDJTU, 2-bosqich talabasi,  
Ilmiy rahbar:F.F Yuldasheva  
O'zDJTU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekistonning ekologiyasidagi va atrof-muhitida sodir bolayatgan muammolar va ularni oldini olish uchun olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot berilgan.

**Tayanch tushunchalar:** ekologiya,tabiiy resurslar,maishiy chiqindi,orol dengizi,atmosfera, litosfera

**Аннотация:** в этой статье вы узнаете о проблемах в экологии и окружающей среде Узбекистана и принимаемых мерах по их предотвращению.

**Основные понятия:** экология, природные ресурсы, бытовые отходы, атмосфера, литосфера

**Abstract:** in this article you will learn about the problems in the ecology and environment of Uzbekistan and the measures taken to prevent them.

**Key words:** ecology, natural resources, household waste, atmosphere, lithosphere

Bugungi kunda nafaqat yurtimizda baliki butun dunyoda atrof-muhit bilan bog'liq turli xildagi muammolarga duch kelishingiz mumkin. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha joylarda sezilmoqda. Natijada o'rmonli hududlari qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda. Tabiatning holatini inson ta'sirida o'zgarishi va mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning buyuk xavfli hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.

O'zbekiston avvalgi tuzumdan Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammoni , aholi so'gligi va atrof-muhit holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, suv va yer resurslarini yo'qotgan yerkarni meros qilib oldi. Shundan song 1980 yillar oxirida yurtimizdq ekologik muammolar kuchaygan, Respublika hukumatining 1988 yil aprel oyida qabul qilgan qaror asosida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat organi – O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qo'mitaning hududiy bo'linmalarini viloyatlar (tumanlar), shuningdek Toshkent shahri tashkil qilgani yechim boldi.[3] Darhaqiqat Orol va Orolboyi muammolarini yechish uchun yurtimizda juda kop ishlar olib borilmoqda. O'rol dengizining qurishi insoniyat tarixidagi eng buyuk ekologik

fojialardan biridir. Dengizning sahroga aylanib borishi natijasida dengiz tubidagi tuzlar, zaharli o'g'itlar va qumchang insoniyat hayoti va tabiatni katta xaf ostiga qoydi. Va O'zbekiston misli korilmagan tajribag qol urib dendiz ornidagi sahroni o'rmonga aylantirmoqchi va buning ustida ishlar olib bormoqda. [2]



Bundan tashqari Mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqa bo'lib, keljakda albatta butun dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, energetika, oziq-ovqat va transport kabi sohalarni rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Bu kabi ishlab chiqarishlar natijasida ijtimoiy-ekotizimlarning holatiga malum darajada o'zining salbiy ta'sirini korsatadi.[1]

Yurtimizda dolzarp bo'lib turgan ekologik muamo va tabiatni muhofaza qilishga oid muamolarga quidagilar kiradi;

1 Yirik hududiy sanoat majmuolari joylashgan rayonlarda tabiatni muhofaza qilish muammolari.

2 Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

3 Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisetlar va mineral o'g'itlar bilan iflaslanishi ham muamolardan biri.

4 O'simlik va hayvont dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muamolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmig'ini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda Orol muamosi keltirib chiqazgan fojiasi oqibatlarini yumshatish, u yerda yashayotgan aholi salomatligini muhofaza qilish, ularning yashash tarzini yanada yaxshilash, hududning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik barqarorlikni taminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham faoliy korsatishmoqda. Bundan tashqari biz faqatgina Orol muamosi bilan gina toxtab qolmay balki tabiiy resurslardan; qayta tiklanmaydigan yer resurslaridan oqilola foydalaman gan holda uni asrash. Yoq bolish ehtimoli bo'lган hayvonlarni asrash orqali ham tabiatni asraylik. Butun bir tabiatni asrab avaylashimiz va uni keljak avlod uchun ham yetkazichimiz kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

- 1 Yu.Sh.Shodimetov Sog'lom turmush tarzi; ijtimoiy-gigienik va ekologik muamolar.  
–T.:Ibn Sino,1991 b31
- 2 A.E.Ergashev,T.A.Ergashev Hozirgi zamonning ekologiya muamolari va tabiat muhofazasi. Toshkent 2012.b 263
- 3 O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi  
<https://www.uznature.uz/uz/site/page?numer=103>